

Ilmiy to'garaklar

2024-2025 o'quv yilida "Akusherlik, ginekologiya va neonatologiya" kafedrasini mudiri, t.f.n. Bazarova S.K. tashabbusi bilan klinik fanlar yo'nalishi bo'yicha talabalarning ilmiy to'garaklari tashkil etilib, to'garaklarda 50 ga yaqin talabalar ishtirok etmoqda. Akusherlik fanidan "Embrion" to'garagi, ginekologiya fanidan "Ginko" to'garagi va neonatologiya fanidan "Neomed" to'garagi tashkil etildi. Mazkur to'garaklardan IQ-test asosida iqtidorli talabalar tanlab olinib, ular to'garak mashg'ulotlaridan tashqari yil davomida ilmiy izlanish va ilmiy tadqiqot ishlari asoslari bilan tanishib boradilar. Har bir iqtidorli talaba uchun ilmiy rahbar tanlanadi.

Neomed to'garagining neonatologiya bo'yicha ishi 2024-2025 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan rejaga muvofiq amalga oshiriladi. Rejadagi dastlabki ishlar quyidagicha:

1. Kafedraning ilmiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda talabalarning ishtiroki.
2. Nazariy bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish.
3. Kelajakdagi neonatologlarning dunyoqarashi va ilmiy bilimlarini kengaytirish;
4. Ilmiy munozaralar o'tkazish qobiliyatini rivojlantirish.

«NeoMed» to'garagi tomonidan o'tkaziladigan seminarlarning tematik rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha seminarlar o'tkazildi. Shu bilan birga, neonatologiyaning innovatsion yutuqlari, zamonaviy davolash va diagnostika usullariga alohida e'tibor qaratildi. Talabalarni qiziqtirgan savollarga javoblar berildi.



To'garak faoliyatining yo'nalishlaridan biri talabalar bilan ilmiy ishlar olib borishdir. To'garak ishtirokchisi Zumrad Abubakirova bilan birgalikda bir qator ilmiy ishlar chop etilgan. Xususan, bir qator xalqaro ilmiy jurnallarda «THE ROLE OF NUTRITIONAL SUPPORT FOR PREMATURE NEWBORNS – ANALYSIS OF VARIOUS FEEDING SCHEMES AND THEIR EFFECTIVENESS» ҳам «Связь между тяжестью гемолитической болезни новорожденных и риском развития гипоксически-ишемической энцефалопатии или других неврологических нарушений у новорожденных в регионах приаралья», «Мочекаменная болезнь в регионах приаралья среди взрослых: эпидемиологические особенности, факторы риска и связь с качеством источников питьевой воды», «Влияние экологической ситуации в приаралье на заболеваемость респираторными заболеваниями» maqol va tezislar bir qancha xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etildi.

Pediatrica ishi fakulteti 5-kurs talabasi Sultanova Lolaxon bilan birgalikda "HROQ va muddatidan oldin tug'ilishning etiologik jihatlar" mavzusida ilmiy maqola yozdik.

26 noyabr kuni Toshkentda tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida o'tkazilgan "tibbiyot virtuozlari" IV xalqaro olimpiadasida "davolash ishi" yo'nalishining 5-kurs talabasi Abubakirova Zumrad akusherlik va ginekologiya bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi.

Olimpiadada Tatariston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Respublikamizning 26 ta oliy tibbiyot o'quv yurtlari terma jamoalari ishtirok etdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda yangi o'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining 7 ta asosiy yo'nalishidan kelib chiqib, vazirliklar va idoralarning 2025-yilning birinchi choragi (yanvar-mart) uchun Media-rejasi tasdiqlandi.

Rejaga ko'ra, 2025-yil 24-yanvar kuni Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida zamonaviy va innovatsion usullarga asoslangan treninglar uchun simulyatsiya

markaziga press-tur tashkil etildi. Tadbirda 10 dan ortiq ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar va bloggerlar ishtirok etdi. Press-tur davomida institutning yuqori malakali va kasbiy salohiyatga ega tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash imkoniyatini beruvchi shartlari bilan tanishtirildi.



2025 yil 24 aprel kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida V xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi."Konferensiyada AQSh, Italiya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya va 35 dan ortiq boshqa mamlakatlardan 1000 ga yaqin talaba ishtirok etdi. Tadbirda tibbiyotning turli sohalarida zamonaviy yutuqlar, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar namoyish etildi. Konferensiyada pediatriya bo'yicha 505-guruh talabasi Urzumova Safiya "Orolbo'yi hududida yashovchi o'smir qizlarning reproduktiv salomatligi" mavzusida ma'ruza bilan ikkinchi o'rinni egalladi.



"Embrion" to'garagi ishtirokchisi Abubakirova Zumrad 26-noyabr kuni Toshkentda tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Tibbiyot virtuozlari" IV xalqaro olimpiadasida ishtirok etib, ikkinchi o'rinni egalladi.



"Ginko" to'garagi ishtirokchisi Nuranbayev Shaxabatdin 504-guruh "Pediatriya ishi" yo'nalishi bo'yicha 15-16 dekabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan IV Xalqaro "Samarqand-2020" olimpiadasida ishtirok etib, talabalar akusherlik va ginekologiya bo'yicha faol qatnashdi.



To'garak ishtirokchisi Sofiya Urzumova 24-aprel kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Talabalar tibbiyotining zamonaviy yutuqlari" V xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasida "Orolbo'yida yashovchi o'smir qizlarning reproduktiv salomatligi" mavzusida ma'ruza qildi va ikkinchi o'rinni egalladi.



"Davolash ishi" yoʻnalishi boʻyicha 612-guruh toʻgarak aʼzosi Sodiqboyeva K.K. 2025-yil 21-22-may kunlari Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetida oʻtkazilgan "Abu Ali ibn Sino taʼlimotidan uchinchi Renessansgacha" IV xalqaro talabalar olimpiadasida qatnashib, faxrli uchinchi oʻrinni egalladi.

